

**16-Mavzu; Kasb ta'limi jarayonida pedagogik
texnologiyalar.**

1. Pedagogik texnologiyalar ta'riflari.

M.V. Klarin

Pedagogik texnologiya- bu pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan barcha shaxsiy, vositaviy va metodologik vositlarning tizimli yig'indisi va harakatlanish tartibi.

V.M. Monaxov

Pedagogik texnologiya- bu loyihalashni va o'quv jarayonini tashkillashtirish va olib borishda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar uchun qat'iy qulay sharoitlarni ta'minlashni o'z ichiga oluvchi, butun tafsilotlari puxta o'ylab ko'rilgan pedagogik faoliyatning modelidir.

V.P. Bepal'ko

Belgilangan ta'limiy maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi, nazariy asoslangan ta'lim va tarbiya jarayonini qayta ishlab chiqishning vosita va metodlari yig'indisidir.

1. Pedagogik texnologiyalar ta'riflari.

N.E Shurkova

Pedagogik texnologiya- bu o'quvchi bilan o'zaro harakat jarayonida unga pedagogik ta'sir etish xususiyatining ilmiy-pedagogik asosnomasi.

I.P. Volkov

Pedagogik trejalashtiriladigan exnologiya- bu ta'limning natijalariga erishish jarayoni tafsiloti.

G.N. Selevko

Pedagogik texnologiya- bu o'zida turli manbalarning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi.

1. Pedagogik texnologiyalar ta'riflari.

N.N.
Azizxujaeva

Pedagogik texnologiya- bu ta'limning belgilangan maqsadi va ta'lim oluvchining bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi hamda pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi.

N.
Sayidaxmedov

Pedagogik texnologiya- bu ta'lim beruvchining o'qitish vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga muayan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

O'.Q. Tolipov

Pedagogik texnologiya- bu vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim.

“**Texnologiya**”- yunoncha “texnos” (**temhne**)- mahorat, san'at va “logos” (**logos**) fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan.

Ishlab chiqarishda “**Texnologiya**” so'zidan kelib chiqadigan tushunchalar

1. **Texnologik jarayon**- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik ishlar yig'indisi.
2. **Texnologik ish**- ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.
3. **Texnologik xarita** – ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik ishlar izchiligini bayon qiluvchi texnik hujjat.
4. **Texnologik tartib (rejim)** - texnologik ishlarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan ishlarning vaqti, Shartlarini belgilaydi.

**Pedagogik
texnologiyaning
asosiy
vazifalari**

Ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy, yaxlit ishlab chiqish

Ta'lim-tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash.

Ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini ishlab chiqish


Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Ta'lim oluvchilar faoliyatni nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish

Fan-texnika taraqqiyotidagi axborotlarni yoshlarga. Etkaziishni tezlashtirish

2. “Pedagogik texnologiyalar” tushunchasining asosiy jihatlari.



3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari.

Konseptuallik

Har bir pedagogik texnologiyada ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asosnomasini o'z ichiga olgan, o'ziga xos asos aniq ilmiy konsepsiya bo'lishi lozim.

Tizimlilik

Pedagogik texnologiya- tizimning barcha belgilariga ega bo'lishi lozim: jarayonni mantiqi, uning barcha qismlarini o'zaro bog'liqligi, umumiylik.

Boshqaruvchanlik

Diagnostik maqsadni belgilash, ta'lim jarayonini loyihalash, izchil diagnostika qilishni, natijalarni to'g'rilash maqsadi bilan vositalar va metodlarni o'zgartirish imkonini nazarda tutadi.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari.

Samaradorlik

Zamonaviy pedagogik texnologiya raqobat sharoitlarida mavjud bo'ladi va shu bois natijalar bo'yicha samarali va harajat bo'yicha eng optimal bo'lishi zarur, aniq ta'lim standartiga erishishni kafolatlashi kerak.

Takror ishlab
chiqishlik

Boshqa bir turdagi ta'lim muassasalarida, boshqa sub'ektlar tomonidan pedagogik texnologiyalarni qo'llashni (qaytarish, takror ishlab chiqarish) nazarda tutadi.

4. Pedagogik texnologiya turlari.

Hozirgi an'anaviy ta'lim- zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarida takomillashtirish maqsadida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar- hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi.

Ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga Asoslangan pedagogik texnologiya- muammoli ta'lim, o'yin texnologiyasi va boshq.

Rivojlantiruvchi texnologiyalar- bunga ta'lim oluvchi shaxsining insoniy sifatlarini ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

4. Pedagogik texnologiya turlari.

O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar- bu texnologiyalar o'rganilayotgan bilimlarning didaktik tizimini chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, ta'lim oluvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar- bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli, guruhli, komp'yuter ta'lim texnologiyalari kiradi.

5. Psixologik-pedagogik rejada pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishi.

- 1 → Eslab qolish funksiyasi sifatidagi o'qishdan o'zlashtirilganlarni qo'llash imkonini beruvchi, aqliy rivojlanish jarayoni sifatidagi o'qishga o'tish.
- 2 → Assosiativ, o'zgarmas bilim modelidan, aqliy harakatlarning dinamik strukturaviy tizimiga o'tish.
- 3 → O'rtacha talabaga yo'nalishidan ta'lim dasturini differensiallashtirish va individuallashtirish.
- 4 → O'qishning tashqi motivasiyasidan ichki ma'naviy-irodaviy boshqarishga o'tish.

Ta'lim texnologiyasini konseptual asoslari

